

**INSON MANFAATLARI HIMOYASIDA UTOPIK TAFAKKURNING KRIZISI VA
PRAGMATIK MODELLARINING SHAKLLANISHI**

Olimova Muxtasar Rayimovna

*Guliston davlat universiteti, ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: olimova.muxtsar0927@gmail.com Tel: +998 90 255 99 77

Annotatsiya: *Maqolada inson manfaatlari himoyasining ma'naviy asoslari masalasi atroflicha taxlil qilingan bo'lib, bunda mamlakatimizda mazkur masalada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning amaldagi tasdig'i Prezident nutqi va asarlari, hukumat tomonidan chiqarilayotgan huquqiy hujjatlar orqali asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Utopiya, Pragmatik, Manfaat, erkinlik, huquq, Ona Vatan, Konstitutsiya, inson huquqlari, qadriyat, komillik, taraqqiyot strategiyasi, ma'naviyat.*

Аннотация: *В статье дается комплексный анализ вопроса духовных основ защиты интересов человека, освещаются масштабные реформы, реализуемые в нашей стране по этому вопросу, и их практическое подтверждение речами и трудами Президента, а также правовыми документами, изданными правительством.*

Ключевые слова: *Утопия, Прагматик, Интерес, свобода, право, Родина, Конституция, права человека, ценность, совершенство, стратегия развития, духовность.*

Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga egadir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Bosh Qomusimizning II bob 13 moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatı va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Shu o'rında ma'naviyatli inson masalasiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Ma'naviyatli inson nima maqsadda yashayotganini aniq tasavvur etib, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini axtaradi, jamiyat a'zolari bilan muomala qilish madaniyatini egallab boradi. Ma'naviyatli inson har bir masala va muammoga aql-idrok, insof va adolat nuqtai nazaridan yondashadi, vijdon, insof, iymon, or-nomus, to'g'rilik va yolg'on, halol va harom tushunchalari mohiyatini tushunishga intiladi. Shu tariqa u yaxshilikka boshlovchi amallarni bajarib, yomon xatti-harakatlardan o'zini tiyadi. Ona Vatani, millati va xalqini sevish, demak-ki, vatanparvarlik, millatparvarlik



va xalqparvarlik xislatlari inson ma'naviyatining asosiy ijtimoiy omillaridir. Ma'naviyatli insonlar ko'paygan jamiyatda aql, sog'lom fikr, yaxshi xulq, insof va adolat tantana qilib, turli salbiy illatlar barham topadi. Natijada jamiyat a'zolarining kelajakka ishonchi ortib, ular o'z faoliyatlarini Vatan va xalq ravnaqi yo'lida safarbar etadi.

Masalan XX asr tanqidiy va liberal yondashuvlaridan biri sifatida Aflotun "Davlat" asarini "totalitarizmning ildizi" deb baholagan eng mashhur tadqiqotchi Karl Popper hisoblanadi. Popper Aflotunni erkinlikka dushmanlikda va kasta tizimini oqlashda ayblaydi. Uning "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asari Platon utopiyasini tahlil qilishda burilish yasadi.

Mamlakatni ma'naviyat sari yetaklaydigan asosiy kuch bu – ma'naviyatli kishilardir. Yurtimiz hududida birinchi va ikkinchi renessans davriga ahamiyat tashlaydigan bo'lsak, ilm mayog'ini yuqori ko'tarib, o'zlaridan buyuk meros qoldirgan allomalarimizning asarlarida xalq manfaatlarining ma'naviy asoslari asosiy masalalardan biridir. Shu o'rinda Prezidentimizning "Inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi davlatni barpo etishdek buyuk xalq harakati tobora kengaymoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharaftir"[1:19] degan gaplari mamlakat xalqini birdamlikka chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida "Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish, "inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezon bo'lib qoladi",[2] degan oliyjanob so'zlari inson manfaatlari himoyasining ma'naviy asosi hisoblanadi.

Shuning uchun ham Aflotunning ijtimoiy-falsafiy tahlillarida inson manfaatlarini bilish va kelajak haqidagi qarashlari utopiyadan pragmatik bilishni ifodalaydi. Aflotun oddiy yechim taklif qildi: boshqaruvni dono va fazilatli insonlarga topshirish lozim. U haqiqat va adolat mohiyatini chuqur anglaydigan "faylasuf-hukmdorlar" tushunchasini kiritdi. Uning ideal davlatida bu yetakchilar adolatli va oqilona boshqaruvni ta'minlash uchun matematika, mantiq va falsafa kabi fanlar bo'yicha mashaqqatli tayyorgarlikdan o'tishlari kerak edi. Aflotun kuzatgan o'z manfaatini ko'zlovchi siyosatchilardan farqli o'laroq, faylasuf-hukmdorlar shaxsiy manfaat uchun emas, balki umumiy farovonlik yo'lida hukmronlik qilishi lozim edi.

Keying yillarda mamlakatimizda "Inson" atamasining birinchi o'ringa ko'tarilganini barchamiz guvohi bo'lmoqdamiz. Prezidentimizning "Eng muhimi, biz ko'p yillar davomida amal qilib kelingan "davlat-jamiyat-inson" tamoyilini o'zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo'yildi. Hayotimizda "Davlat – insonlar uchun" degan xalqchil g'oya izchillik bilan qaror topib bormoqda"[3:5] deb aytga gaplari buning amaliy tasdig'idir.



Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining markazida inson qadri, huquq va erkinliklarini ta'minlash g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish sohasidagi faoliyat bosqichma-bosqich yangi, yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat"[4:224].

Inson manfaatlari himoyasining ma'naviy asoslari mavzusi falsafiy- axloqiy va ijtimoiy jihatdan nihoyatda muhim masaladir. Quyida bu masalaning bir nechta muhim jihatlari borligini aytib o'tish o'rinli deb bilaman.

Birinchidan inson manfaatlari bu shaxsning hayoti, erkinligi, shani sog'ligi, bilim olishi, mehnat qilishi, tinchlik va adolatli jamiyatda yashash huquqiga doir ehtiyojlardir.

Ikkinchidan ma'naviy asoslar bu inson faoliyatini yo'naltiruvchi axloqiy me'yorlar qadriyatlar va e'tiqodlar tizimi bo'lib u jamiyatda inson manfaatlarini himoya qilishning ichki axloqiy tayanchidir.

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- Diniy ahloqiy tamoyillar;
- Xalqning urf-odatlar va an'analari;
- Falsafa va huquqiy tafakkur yutuqlari.

Uchinchidan inson manfaatlarini himoya qilishning tamoyillari.

- Adolat har bir insonning huquq va qadr qimmatiga nisbatan teng munosabatda bo'lish;

- Vijdon va halollik - vijdonan yashash va xizmat qilish.
- Mas'uliyat - o'z burchiga sodiqlik.
- Xurmat va bag'rikenglik - boshqalar fikrini qadrlash va boshqalar.

To'rtinchidan Ma'naviy qadriyatlarni inson manfaatlarini himoyasidagi roli. Bu borada biz I.Karimovning Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida ma'naviyat atamasiga berilgan ta'rifni eslashimiz o'rinlidir. Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Beshinchidan Yangi O'zbekiston misolida keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirililib borilayotgan islohotlar, ya'ni Konstitutsion islohot, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasining yo'nalish va bo'limlarida inson qadr-qimmati va uning ma'naviy asosi masalasiga alohida urg'u berilgani ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni takidlash o'riliki davlatchilik an'analari boy xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq adolatli demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etishga kirishdi. Ammo zikr etilgan



huquq va erkinliklar o‘z-o‘zidan, avtomatik ravishda ma’naviyatli shaxsni kamol toptirish, yangi munosabatlarni shakllantirishga olib kelmaydi. Aristotel ta’biri bilan aytganda, yashash, hayot kechirish shunchaki mashg‘ulot emas, u “faoliyatdir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. - 440 b.
2. Mirziyoyev Sh. - “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz”. 06.11.2021 yil // <https://president.uz/uz/lists/view/4743>.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun [Matn] /– Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 392 b.
4. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 392 b.

